



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI

Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich

O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi boshqarma boshlig'i. MKO va STI mustaqil izlanuvchisi
Email: m.jamolov@stat.uz

Annatsiya: Ushbu maqolada asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni sarhisob qilinib, O'zbekiston Respublikasida so'nggi besh yillikdagi bu yo'nalishda amalga oshirilgan samarasining statistik tahlili amalga oshirilgan

Kalit so'zlar: asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, o'sish, asosiy fondlar, aktivlar, investorlar, investitsion jozibadorlik, markazlashgan investitsiyalar, markazlashmagan investitsiyalar.

Abstract: This article examines the role of investments in fixed capital in ensuring economic stability, and provides a statistical analysis of the effectiveness of reforms implemented in the Republic of Uzbekistan over the past five years in this area.

Keywords: fixed capital investment, growth, fixed assets, assets, investors, investment attractiveness, centralized investments, decentralized investments.

Абстрактный: В данной статье рассматривается роль инвестиций в основной капитал в обеспечении экономической стабильности, а также проводится статистический анализ эффективности реформ, реализованных в Республике Узбекистан за последние пять лет в данном направлении.

Ключевые слова: инвестиции в основной капитал, рост, основные фонды, активы, инвесторы, инвестиционная привлекательность, централизованные инвестиции, децентрализованные инвестиции.

Kirish (Введение/Introduction).

Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanish darajasi ishlab chiqarishning nafaqat miqdoriy oshishi, balki sifati hamda raqobatdosligi bilan ham belgilanadi. Globallashuv sharoitida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va xalqaro maydonda munosib o'rin egallash uchun barcha tarmoqlarning uzluksiz rivojlanishi zarur. Shu nuqtai-nazardan global iqtisodiy integratsiya sharoitida investitsiyalar oqimini kengaytirish har bir davlatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiyotning real sektorida ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, modernizatsiya qilish va kengaytirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Shu bois barcha tarmoqlar barqaror taraqqiyotini ta'minlashning asosiy usullaridan biri — ichki va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

So'nggi yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida keng o'rganilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli barqaror foyda olishning asosiy manbai hisoblanadi [1]. Shu bilan birga, investitsiyalarning samaradorligi ularning tarmoqlararo taqsimoti va innovatsion yo'naltirilganligiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi [2].

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, yangi qo'shimcha qiymat zanjirlarini shakllantiradi [3]. Bu esa korxonalar uchun barqaror daromad manbalarini yaratish imkonini beradi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida texnologik yangilanishlar investitsiya qaytimi (ROI)ni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega [4].

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalarni jalb qilishda institutsional muhitning ahamiyati alohida qayd etiladi. Barqaror huquqiy baza va investitsiya muhitining shaffofligi kapital qo'yimlarining uzoq muddatli samaradorligini ta'minlaydi [5]. Bu omillar investorlar ishonchini oshirish orqali doimiy foyda olish imkoniyatini kuchaytiradi.

Ayrim tadqiqotlarda infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar milliy iqtisodiyotda multiplikativ ta'sirga ega ekanligi ko'rsatilgan [6].

Bunday investitsiyalar nafaqat bevosita daromad keltiradi, balki boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga ham turtki beradi. Natijada umumiy iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish xavflarni kamaytirish va uzoq muddatli foydani kafolatlashning samarali usuli hisoblanadi [7]. Shu bilan birga, "yashil iqtisodiyot"ga yo'naltirilgan investitsiyalar ham barqaror rentabellikni ta'minlashda muhim omil sifatida baholanmoqda [8].

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligi ularning innovatsionligi, institutsional muhit, tarmoqlararo muvofiqligi va strategik boshqaruvga bog'liq bo'lib, aynan shu omillar uzoq vaqt davomida barqaror foyda olishni ta'minlaydi [9].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Methods).

Mazkur tadqiqotda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning uzoq muddatli barqaror foyda keltirishga ta'sirini o'rganish maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy usullar uyg'unligi ta'minlandi.

Avvalo, ilmiy bilishning umumiy usullari — tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash hamda guruhlash usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali investitsiya jarayonlarining iqtisodiy mohiyati va ularning barqaror foyda shakllantirishdagi o'rni tizimli ravishda o'rganildi.

Tadqiqotning empirik qismida statistik tahlil usullari qo'llanildi. Jumladan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, ularning tarmoqlar kesimida taqsimoti va vaqt bo'yicha dinamikasi o'rganildi. Bunda korrelyatsion va regression tahlil usullari orqali investitsiyalar va foyda ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik darajasi aniqlandi.

Shuningdek, iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli orqali investitsiyalarning kelgusi davrlardagi samaradorligi prognoz qilindi. Bu usul investitsiya qaytimi (ROI), sof joriy qiymat (NPV) va ichki daromad normasi (IRR) kabi ko'rsatkichlar asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usulidan ham foydalanilib, turli mamlakatlar va iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiya siyosatining samaradorligi o'rganildi. Bu esa milliy iqtisodiyot uchun eng samarali investitsiya strategiyalarini aniqlash imkonini berdi.

Bundan tashqari, tizimli yondashuv asosida investitsiya jarayonlari institutsional muhit, innovatsion rivojlanish va infratuzilma bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Mazkur yondashuv investitsiyalarning uzoq muddatli barqaror foyda keltirish mexanizmini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida rasmiy statistik ma'lumotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va zamonaviy ilmiy manbalardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results/Анализ и результаты).

Asosiy kapitalga investitsiyalar — bu foydani oshirish maqsadida asosiy vositalarni sotib olish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, qurish hamda boshqa sa'y-harakatlar uchun qo'shimcha xarajatlar evaziga korxonalar aktivlari va balansi qiymatining oshishi hisoblanadi. Xususan, bu tushuncha yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishni, mavjud texnologik bazani yangilashni hamda infratuzilmani takomillashtirishni o'z ichiga oladi.


Mazkur jarayonda korxonalarining qo'shimcha mablag'larni investitsiyalash orqali o'rta va uzoq muddatli istiqbolda ishlab chiqarishning o'sishiga, undan keladigan foydani oshirishga erishish ko'zda tutiladi. An'anaviy tamoyilga ko'ra, asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalarning darhol qaytishini kutmaslik kerak, ammo ular uzoq vaqt davomida barqaror foyda kelishining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ish o'rinlari yaratilishiga, ishchi kuchi malakasining oshishiga va umuman mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2021–2025-yillardagi ma'lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib borganini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Agar 2021-yilda mazkur ko'rsatkich 236 trillion 552,6 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022–2024-yillar davomida uning o'sish hajmi 241 trillion 250,2 milliard so'mga yetdi. Ko'rsatkichning maksimal qiymati 2025-yilda qayd etilgan bo'lib, u 591 trillion 141,0 milliard so'mga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich mamlakatda investitsiya faolligining yuqori darajada saqlanib kelayotganidan dalolat beradi.

Tahlil qilingan davr mobaynida investitsiya hajmining umumiy o'sish sur'ati 179,4% dan ortiq o'sishni tashkil qilgan, ya'ni besh yil ichida ko'rsatkich deyarli 1,8 baravar ko'paygan. Bu ijobiy tendensiya iqtisodiyotning real sektoriga bo'lgan ishonchning ortganini, investitsiya muhitining yaxshilanganini hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samara berayotganini isbotlaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, tarmoq va sohalarda amalda faoliyat yuritayotgan texnika va texnologiyalarni yangilash hamda ularni qo'llab-quvvatlash — bularning barchasi investitsion jarayonlarning to'g'ri va samarali amalga oshirilishi bilan uyg'unlashgan taqdirdagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Zero, investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarishni kengaytirish, balki mavjud sohalarni raqamlashtirish va innovatsion asosda qayta qurish uchun ham asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

2021–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi, mlrd. so'm¹



Bugungi kunda texnologik rivojlanishning jadal sur'atlari sharoitida korxonalarining eskirib borayotgan asosiy fondlarini o'z vaqtida yangilash, ilg'or xorijiy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga investitsiya kiritish iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlashning zaruriy sharti bo'lib

qolmoqda. Shu jihatdan, sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida investitsiya faolligini kuchaytirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Bu jarayon, o'z navbatida, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e'tibor qaratish bilan ham uzviy bog'liqdir. Transport infratuzilmasini — yo'llar, temir yo'llar, aeroportlar va logistika markazlarini rivojlantirish mamlakat ichida tovar aylanmasini tezlashtiradi, tashqi savdo imkoniyatlarini kengaytiradi va xorijiy investorlar uchun mamlakat jozibadorligini oshiradi. Ijtimoiy infratuzilmaga — ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy qurilishi sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar esa aholi turmush darajasini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga mustahkam zamin yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, sarmoyalar hajmi o'sishining aksariyat qismini 2021–2025-yillarda Investitsiya dasturiga kiritilgan yirik loyihalar hisobiga to'g'ri kelayotgani kuzatiladi.

Amalga oshirilgan loyihalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xalqaro aeroportlar va uskunalarining modernizatsiyasi, Respublikaning turistik markazlaridagi mehmonxonalar, xalqaro kongress xol va majmualarda turli xalqaro anjumanlar o'tkazish, xorijlik va mahalliy sayyohlarni jalb qilishda beqiyos o'rin tutayotganini ko'rish mumkin.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida mamlakatimizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 591 trillion 141,0 milliard so'm investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, bu avvalgi yilga nisbatan 110,5 foizni tashkil qildi. Mazkur ko'rsatkich mamlakat iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchning mustahkamlanib berayotganini va amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy samara berayotganini yaqqol namoyon etadi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar²

	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati %da	umumiy hajmga nisbatan, %	
			2024 y.	2025 y.
Jami	591 141,0	1 0,5	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	62 618,6	1 3,6	10,3	10,6
respublika byudjeti	28 002,0	0 5,8	4,9	4,7
tiklanish va tараqqiyot jang'armasi mablag'lari	2 109,5	6 8,0	0,6	0,4
shu jumladan, mln AQSH dollarida	7 166,2	0 1,1	—	—
O'zbekiston Respublikasi ostidagi xorijiy kreditlar	32 507,1	2 7,2	4,8	5,5
shu jumladan, mln AQSH dollarida	2 577,7	3 5,3	—	—
markazlashmagan investitsiyalar:	528 522,4	1 0,2	89,7	89,4
korxonalar mablag'lari	90 311,1	0 0,8	16,7	15,3
aholi mablag'lari	37 472,2	0 6,2	6,4	6,3
xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	389 589,6	1 3,2	64,6	65,9

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

		1		
	30	1		
	917,0	9,	–	–
shu jumladan, mln AQSH dollarida		9		
shundan:				
	281	4	36,	47,
	128,8	6,	0	5
xorijiy investitsiyalar		9		
		1		
	22	5		
	360,4	6,	–	–
shu jumladan, mln AQSH dollarida		1		
		1		
	11	0		
tijorat banklari kreditlari	149,5	4,	2,0	1,9
va boshqa qarz mablag'lari		6		

Investitsiyalar hajmining barqaror o'sishi, 2025-yilda erishilgan investitsiya ko'rsatkichi mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish yo'lidagi muhim qadam bo'lib, kelgusi yillarda yalpi ichki mahsulot va aholi farovonligining yanada yuksalishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Bunda 2025-yilda markazlashgan manbalar hisobidan jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning ulushi 10,6 foizga yoki 62 trillion 618,6 milliard so'mga teng bo'lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobiga uning 89,4 foizi to'g'ri keldi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 2024-yilga nisbatan 13,6 foizga ko'payish bilan birga, markazlashmagan investitsiyalarda kiritilgan sarmoyalarning 21,6 foizi korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilganligi alohida e'tiborga loyiqdir.

2025-yilning o'zida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 32 trillion 507,1 milliard so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, 2024-yilga nisbatan 127,2 foizni tashkil etdi. Ularning jami hajmidagi ulushi esa, 5,5 foiz darajasida qayd etildi va yirik hajmdagi investitsion loyihalarga yo'llandi. Navoiy viloyatida issiqlik elektr stansiyasi bug'-gaz qurilmasini qurish kabi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2 trillion 109,5 milliard so'mni va jami investitsiyalardagi ulushi 0,4 foizga teng bo'ldi.

Davlat darajasida ham, alohida hududlar miqyosida ham investitsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirish mamlakatda, O'zbekistondagi subektlar, sanoat korxonalarini va tashkilotlarida iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. 2025-yilda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich va o'sish sur'atlari xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

Xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan hayotga tatbiq etilayotgan loyihalarni ko'lami ham ortib boryapti. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi 2025-yilda 65,9 foizni tashkil etgani buning amaliy tasdiqidir. Aholi mablag'lari hisobidan esa, 37 trillion 472,2 milliard so'm o'zlashtirildi. Bu mablag'lar asosan uy-joylar qurishga yo'naltirilgan.

Iqtisodiyotning o'sishi va uni modernizatsiya qilishning yuqori sur'atlarini ta'minlash faqat viloyat hududida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga sarmoyalar yo'naltirilgan taqdirda samarasi yanada katta bo'ladi. Shu jihatdan joriy yilning dastlabki choragi tahlil etilganda, hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Farg'ona viloyatida (145,2 %) kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. Abdullayev Q.X. Investitsiyalar iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022.
2. Karimov Sh.R. Milliy iqtisodiyotda investitsiya siyosatini takomillashtirish. – Toshkent: Fan, 2023.
3. Yuldashov B.T. Raqamli iqtisodiyotda investitsiya jarayonlari. – Toshkent: Innovatsiya, 2024.
4. Sidiqov A.N. Sanoatda investitsiya samaradorligi tahlili. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
5. Normatov D.J. Investitsiya muhiti va uning barqarorlikka ta'siri. – Toshkent: Iqtisodiyot dunyosi, 2023.
6. Xalilov M.S. Infratuzilma investitsiyalari va iqtisodiy o'sish. – Toshkent: Universitet, 2024.
7. Ergashev U.P. Investitsiya portfelini boshqarish. – Toshkent: Moliya, 2022.
8. Tursunov I.A. Yashil iqtisodiyot va barqaror investitsiyalar. – Toshkent: Ekologiya nashriyoti, 2025.
9. Rahimov S.B. Strategik investitsiyalar va uzoq muddatli rivojlanish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023.

Ushbu natijani katta quvvatga ega yangi quyosh fotoelektr stansiyasini qurish kabi yirik loyihalarga investitsiyalarni o'zlashtirish bilan izohlash mumkin. Sirdaryo viloyatida ham bu boradagi ishlar ko'lami katta. Shu bois o'sish o'tgan yilning mos davriga nisbatan

145,2 % ni tashkil qildi. Bu hududda turistik markaz, quvvati katta bo'lgan issiqlik elektr stansiyasi qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

Viloyat iqtisodiyotiga zamonaviy sharoitlarda investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etish, avvalo, mintaqaning investitsiya jozibadorligini izchil oshirish va mavjud investitsiya xatarlarini maqbul darajaga tushirishga qaratilgan tizimli hamda maqsadli faoliyatni taqozo etadi. Hududda investitsiyalarni boshqarishning yangicha, nonstandart yondashuvlari va samarali vositalarini izlab topish zarurati hududiy hokimiyat organlarini tijorat muhitida sinovdan o'tgan zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini keng qo'llashga undamoqda.

Globalashuv jarayonining chuqurlashuvi natijasida mintaqalar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli va faol ishtirokchilariga aylanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, ular savdo bozorlari, investitsiya oqimlari, byudjet va ma'muriy resurslar uchun o'zaro keskin raqobat olib bormoqda. Bunday sharoitda har bir hudud o'ziga xos geografik o'rni, tarmoqlar rivojlanishidagi ustunliklari, mavjud mehnat resurslari hamda tabiiy boyliklar zaxiralarni chuqur tahlil qilishi va ulardan strategik foydalanishi lozim. Aynan ana shu omillarni kompleks hisobga olish hududiy boshqaruv organlariga mintaqa iqtisodiy rivojlanishining aniq va samarali yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Investitsion strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning umumiy samaradorligini ta'minlash uchun bir qator muhim vazifalarni izchil hal etish zarur. Jumladan, hududning tasdiqlangan rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib, investitsiya ehtiyojlari va ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, investitsiya jihatidan jozibador obyektlarni rivojlantirishga ko'maklashish va buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, hududdagi korxonalariga investitsiya jalb qilish borasida hokimiyat organlari tomonidan amaliy ko'mak ko'rsatish va tegishli yo'nalishlar bo'yicha to'g'ri tushuncha hamda bilimlarni targ'ib qilish ta'minlanishi kerak. Hududlarning mavjud imkoniyatlari va raqobatdosh ustunliklariga tayanib, mamlakatga strategik investorlarni jalb etish masalalarini har tomonlama va atroflicha ko'rib chiqish zarurdir. Shuningdek, mamlakatda shakllangan investitsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish va moliyaviy investorlar uchun qulay imkoniyatlar yaratish orqali moliyaviy investitsiyalarni kengaytirish iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Выводы и предложения).

Amalga oshirilgan tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshiradi, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy omili hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda kuzatilayotgan investitsiyalarning barqaror o'sishi iqtisodiy islohotlarning samarali ekanini tasdiqlaydi.

Investitsiya muhitini rivojlantirishda faqat tashqi manbalarga tayanmay, balki mintaqa aholisining jamg'arma va moliyaviy resurslarini ham investitsiya aylanmasiga faol tortish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Xorijiy va mahalliy investorlar uchun ma'muriy-huquqiy, moliyaviy va siyosiy xatarlarni izchil kamaytirish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish orqaligina mintaqaning investitsion jozibadorligini yuqori darajada ta'minlash mumkin.